O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

15. Насыров Б. У. История деятельности бань в восточных странах //International scientific review. – 2016. – №. 4 (14). – С. 62-66.

16. Носиров Б., Носирова Ф. СИСТЕМА БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ: ГЕНЕЗИС И ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН В 60-80 ГОДЫ ПРОШЛОГО ВЕКА) //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 1-4. – С. 41-46.

17. Носиров Б. Механизмы и противоречивое развитие сферы бытового обслуживания в Узбекистане 20-40 годах XX века //Культура. Духовность. Общество. – 2014. – №. 11. – С. 158-163.

18. Носиров Б., Носирова Ф. СИСТЕМА БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ: ГЕНЕЗИС И ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН В 60-80 ГОДЫ ПРОШЛОГО ВЕКА) //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 1-4. – С. 41-46.

19. Носиров Б. ИЖТИМОИЙ-МАИШИЙ ИНФРАСТРУКТУРАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЭЪТИБОРГА ОЛИНМАГАН ОМИЛЛАР (СОВЕТ ДАВРИДА): Носиров Бунёд, Тариҳ фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Жиззах филиали //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 4. – С. 8-12.

20. Nasirov B. HISTORICAL SCIENCES //Главный редактор научно-исследовательского журнала «International scientific review», Вальцев СВ. – 2016. – Т. 4. – С. 61.

21. Nasirov B., Muborak K., Moxina K. ACTIVITY OF CATERING INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN AT THE END OF THE 19TH-EARLY 20TH CENTURY: CHANGES AND ATTITUDES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 230-240.

22. Uralovich N. B. et al. XIZMAT KO ‘RSATISH TIZIMIDAGI TRANSFORMATSION JARAYONLAR:(XIX asr oxiri-XX asr boshlarida umumiy ovqatlanish tizimi misolida) //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 359-363.

PLATON FALSAFASIDA G‘OYALAR DUNYOSI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g‘li,
Tolliboyev Dilshod Muhammadiyevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada faylasuf Platon qarashlaridagi g'oyalar dunyosi tushunchasiga to‘g’risida ma'lumot berilgan. Uning ruh haqidagi fikrlari, shu jumladan jamiyatning ideal mulk turlari va bular haqidagi o'ziga xos klassifikatsiyasi ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Epigramlar, qahramonlik eposi, ontologiya, g'oyalar dunyosi, ruh qismlari, jamiyat mulkka ega bo'lish shakllari.

Platon falsafasining asosiy mohiyati — “g‘oya“ (“eydos“)lar haqidagi ta’limotida bayon etilgan. Uning fikricha, g‘oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo uning soyasidir. Haqiqiy o‘zgarish va taraqqiyot g‘oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi hara-kat esa uning in’ikosidir. G‘oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bila olmaydi. Ularni biladigan zotlar juda kam uchraydi, bu zotlar ulkan akl egalari bo‘ladi. Aksariyat kishilar soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi. Platon g‘oyalar dunyosini narsalar dunyosidan ustun qo‘yadi, chunki g‘oyalar dunyosi ideal narsalardir. Inson g‘oyalar dunyosi bilan soyalar dunyosi o‘rtasidagi zotdir. Uning ruhi g‘oyalar dunyosiga, jismoniy tanasi soyalar dunyosiga mansubdir. Shuning uchun ruh va tana birligidan iborat odam ikki olamga tegishlidir. Ruh insonning haqiqiy qismidir. Biz hayot deb ataydigak narsa ruh jismoniy tanada yashaydigan vaqtdir. Platonning bilish nazariyasi uning g‘oyalar haqidagi nazariyasiga asoslanadi. Bilish — anam-nesis, ya’ni jonning eydoslar haqidagi xotirasi. Eydosga bo‘lgan muhabbat (eros) ma’naviy yuksalishga undaydigan sababdir.

"Ontologiya - inson, olam va jamiyatning obyektiv-universal mohiyati to'g'risida falsafiy ta'limotdir. Boshqacha aytganda, u borliq to'g'risidagi insonning olamga bo'lgan munosabati haqidagi falsafiy bilim sohasidir"[1]. Aflotun fikricha, g’oya har qanday ob’ektning asl mohiyati, uning ideal holati sifatida tushunilishi kerak. G'oyani anglash uchun his-tuyg'ularni emas, balki aqlni ishlatish kerak. G'oya narsaning shakli bo'lganligi sababli, hissiy bilish uchun emas, u g'ayrioddiydir.

G'oya tushunchasi antropologiya va Platonning poydevoriga qo'yilgan. Ruh uch qismdan iborat:

1. oqilona ("oltin");
2. kuchli irodali boshlanish ("kumush");
3. shahvoniy qism ("mis").

Odamlarga sanab o'tilgan qismlarga ega bo'lgan nisbatlar har xil bo'lishi mumkin. Platon ular jamiyatning ijtimoiy tuzilishining asosini tashkil etishi kerakligini taklif qildi. Va jamiyatning o'zi ideal holda uchta mulkka ega bo'lishi kerak:

1. hukmdorlar;
2. qo'riqchilar;
3. boquvchisi.

Oxirgi mulkka savdogarlar, hunarmandlar va dehqonlar kirishi kerak edi. Bu tuzilishga ko'ra, jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs faqat o'ziga xos bo'lgan narsani qiladi. Birinchi ikkita mulkda oila va xususiy mulkni yaratish zarurati yo'q. "Ilk borliq shunday borliqki, Undan barcha borliq vujudga keladi. Chindan ham ilk borliqning qay vaqtdan borligidan boshlab, Undan nima yuzaga kelishi barcha borliq inson orasidagi borliqmi?"[2], degan savolga javob topish mushkul, albatta.

Faylasufning ishonchi komil ediki, faqat alohida narsalarni hislar usuli bilan tushunish mumkin, mohiyat esa aql bilan. Bilim na hislar, na to'g'ri fikrlar va na aniq ma'nolardir. Haqiqiy bilim deganda, g‘oyalar olamiga kirib borgan bilim tushuniladi.

Fikr sezgilar tomonidan qabul qilinadigan narsalarning bir qismidir. Sezgi bilimi doimiydir, chunki unga bo'ysunadigan narsalar o'zgaruvchandir.

Bilish haqidagi ta’limotning bir qismi xotira tushunchasidir. Unga ko'ra, inson ruhlari ushbu jismoniy tana bilan birlashgunga qadar unga ma'lum bo'lgan g'oyalarni eslaydi. Qulog‘ini, ko‘zini yumishni, ilohiy o‘tmishni eslashni bilganlarga haqiqat oshkor bo‘ladi.Biror narsani bilgan odam bilimga muhtoj emas. Hech narsani bilmagan odam esa izlagan narsasini topa olmaydi. Platonning bilish nazariyasi anamnezga - eslash nazariyasiga asoslanadi. "Platon fikriga ko'ra, olamda sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlar o'ta sezgir, o'ta g'ayritabiiy, aqldan tashqarida turuvchi anglab bo'lmas prinsip asosida ro'y beradi. Butun borliqning turli-tuman shakllari o'sha borliqqa sig'maydigan prinsip bilan bog'liq. Xuddi shu prinsip - absolut borliqdir"[3]

Xulosa qilib aytganda, Platon o'z davrining yetuk va ilg'or faylasufidir. Falsafa fanining bugungi istiqboli va tarixiy bardavomligi bevosita Platon nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning borliq haqidagi qarashlari o'ziga xos va qaytarilmasdir."Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'rta asrlarda - Sharqda ham, G'arbda ham hukmron bo'lib qoldi"[4]. Platon shu jumladan, jamiyatning serqirra negizlarini chuqur tahlil qilgan faylasuf shaxs. O'z davrida ham bugungi zamona uchun ham qimmatli ma'lumotlar qoldirgan faylasuf hoyotini o'rganish biz uchun faqat va faqat foyda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Falsafa asoslari" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2018. 16-b.

2. Abu Nasr Farobiy " Fozil odamlar shahri" "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent -2004. 20-b.

3. Anvar Choriyev "Inson falsafasi" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2007. 55-b.

4. N.S Jo'rayev, D.A Saliyeva, N.A. Sultonova "Psixologiya tarixi" Toshkent - "Noshir" - 2019. 27-b.

5. Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g’li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. “Mantiq ilmini o‘rganishning ahamiyati”. Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. 2022 yil. 250-bet.

6. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, O'zbekistonda bag’rikenglik va millatlararo totuvlik g’oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar. 2021 yil 10b.

7. Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g’li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. “Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili”. “Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil. –B.549-552.

8. Xosilmurodov I.X. Informatsion globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. “Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari” xalqaro-ilmiy texnik konferensiya. 2022 yil. 61-64b.

9. Islom Xosilmurodov “Falsafiy tafakkur uslubining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati”. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022 yil noyabr. 138-147b

ALOQA VA SAVDO YO‘LLARINING RIVOJLANISHIGA KATTA TA’SIR KO‘RSATGAN G‘ILDIRAKLI TRANSPORT VOSITALARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Tashbayev Asliddin Kumakovich
O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali
a_tashbayev@jbnuu.uz

Annotatsiya: Insoniyat tarixidagi eng muhim kashfiyotlardan biri – g‘ildirakning paydo bo‘lishi va shu asnoda g‘ildirakli transport vositalaridan foydalanishga o‘tilishining aloqa yo‘llari rivojiga qo‘shgan o‘ziga xos xissasi va ahamiyati haqida arxeologik tadqiqotlar hamda tarixiy manbalarga suyanilgan holda atroflicha fikir yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Aloqa yo‘llari, g‘ildirak, transport, arava, ot, tuya, eshak, xachir, xo‘kiz, Oltindepa, harbiy yurishlar, qo‘qon arava, qadimiy ulov vositalari, yuk tashish xizmati, eneolit-bronza davri.

Bronza davri boshlarida, ehtimol undan ham oldinroq insoniyat tarixidagi eng muhim kashfiyotlardan biri – g‘ildirak paydo bo‘ldi. Keyingi texnik taraqqiyot uchun ham zamin hozirlagan bu yangilik ilk ulov-tansport vositalari bo‘lgan turli tipdagi (ma’lum geografik hudud va landshaftning xususiyatidan kelib chiqqan holda) aravalarning ixtiro qilinishiga olib keldi. G‘ildirakli transport vositalaridan foydalanishga o‘tish aloqa yo‘llari rivojiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatdi. Birinchi galda g‘ildirakli transport vositasi bo‘lgan aravalar harakatlana oladigan yo‘llarni qurish zarurati paydo bo‘ldi. Bunday yo‘llar dastlab savdo-hunarmandchilik markazlari bo‘lgan shaharlar yoki boshqa yirik manzillar hududi doirasida qurila boshlangan bo‘lishi mumkin. Bunga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ma’lum darajasini, ya’ni o‘zaro mahsulot almashish va savdoning, aravalar va ularning qismlarini yasay oladigan ustalar va ustaxonalarning, aravalarga qo‘shiladigan ulov vositalarining mavjudligi va boshqa tegishli zaruriy omillardan kelib chiqqan hosila sifatida qarash mumkin.

Yo‘llar, ayniqsa g‘ildirakli transport vositalari harakatlanishiga mo‘ljallangan yo‘llarni barpo etish katta xarajatlar va mehnat talab etishi ma’lum. Shu sababli ham bu yo‘llar dastlabki davrlarda faqat tor mahalliy doirada, masalan shaharlar va boshqa iqtisodiy markazlarni ularning ta’siri doirasida bo‘lgan joylar (xom ashyo manbalari,